

**“DEVONI LUG‘OTIT TURK” ASARIDAGI IJRO HOLATI FE‘LLARI**

Shoira Eshboyeva

ToshDO‘TAU O‘zbek filologiyasi 3-kurs
eshboevashoira@gmail.com +998900084407

Annotasiya. *Qadimgi turkiy til davrida ham fe‘l boshqa barcha so‘z turkumlariga nisbatan eng murakkab, semantik jihatdan rang-barang grammatik kategoriya hisoblangan. Ushbu maqolada “Devoni lug‘otit turk” asaridagi ijro holati fe‘llari “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da keltirilgan fe‘llarga qiyoslagan holda o‘rganildi. Davr taraqqiyoti natijasida leksemalar semasida ma‘lum o‘zgarishlar, ya‘ni ayrim so‘zlarda ma‘no kengayishi yoki torayishi yuzaga kelganligi kuzatildi.*

Kalit so‘zlar: lug‘at, leksema, holat fe‘li, harakat fe‘li, sema, ijro holati fe‘li.

Abstract. *Even in the period of the ancient Turkic language, the verb was considered the most complex, semantically diverse grammatical category compared to all other word groups. In this article, verbs in the “Devoni Lugotit turk” were studied in comparison with the verbs listed in the “Uzbek tilining izohli lugati”. As a result of the development of the period, it was observed that certain changes in the lexeme scheme, that is, the expansion or narrowing of the meaning of some words.*

Key words: *vocabulary, lexeme, state verb, action verb, sema, performance state verb.*

XI asr obidasi bo‘lmish “Devoni lug‘otit turk” asari leksikasini tarixiy jihatdan o‘rganish jarayonida yodgorlikda keltirilgan fe‘l so‘z turkumiga oid leksemalarning ko‘pchiligi harakat fe‘llari ekanligining guvohi bo‘ldik. Shu o‘rinda, devonda holat fe‘llari ham o‘rin olgan. O‘zbek tilidagi holat fe‘llari ob‘ektiv asosiga ko‘ra tabiat va jamiyatdagi, o‘simliklar va hayvonot olamidagi, inson biologiyasi, fiziologiyasi va psixikasi bilan bog‘liq muayyan jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Demak, holat fe‘llari moddiy asosiga (ob‘ektiga) ko‘ra kengligi va murakkabligi, materiyaga xos turlicha holatlarni o‘ziga “joylashtirishi” bilan boshqa semantik maydonga kiruvchi fe‘l leksemalardan ajralib turadi. Holat fe‘llari ma‘nosida reallashuvchi holat muayyan logik sub‘ekt doirasidagina sodir bo‘lishi, undan tashqariga chiqmasligi, unda qolishi bilan xarakterlanadi. Holat fe‘llari holat ifodalaydi,



kimdir(nimadir) muayyan holatda bo‘ladi[1.19]. Holat fe’llari nutqda faol qo‘llanadi, chunki ular borliqdagi narsa-predmetlarga, shaxsga, hayvonga xos turlicha holatlarni ifodalaydi. Bundan tashqari, ular murakkab semantik strukturasi bilan ham ajralib turadi. Shunga ko‘ra ular ma’noviy guruhlariga ajratilgan.

Ijro holati fe’llari sub’ekt (asosan, shaxs) ijrosi natijasida yuzaga kelgan holatni ifodalaydi. Sub’ekt holati ijro komponentiga ega bo‘ladi. Ijro muayyan holatning yuzaga kelishida asos, holat esa asoslanuvchi – natija sanaladi. Ijro holatning muhim tomonini tashkil qiladi. Ijro holati fe’llari quyidagilar: *saqlamoq, asramoq, o‘qtalmoq, panalamoq, qo‘riqlamoq, poylamoq, salqinlamoq*[1.24].

“Devoni lug‘otit turk” asarida boshqa holat fe’llariga qaraganda ijro holati fe’llari kam ekanligining guvohi bo‘lamiz. Devonda jami uchta ijro holati fe’li misollar bilan keltirilgan. Shulardan ikkitasi o‘zaro sinonim. Jumladan *kutdi, saqladi* ma’nosida **көзәзді**-fe’li ifodalangan. **Ол мәңә көзәзді** – *u narsani menga saqladi(asradi)*. **Ол мәни көзәзді** – *u meni kutdi*. **Көзәзді**- bu so‘z, asosan, “*saqlamoq*” va “*kutmoq*” ma’nolarida qo‘llangan. Bu so‘zning asli **көз әтті**, ya’ni yodida tutish uchun ko‘zini bir narsaga otdi, tashladi demakdir. Boshqa bir tilda **көзәтті**- kuzatdi ma’nosida ham qo‘llangan[2.92]. Yana bir o‘rinda esa **күдүшді**- fe’lini ham uchratishimiz mumkin. Bu so‘z ham “*kutmoq*” ma’nosida kelgan va **көзәзді**- so‘ziga sinonim bo‘la olgan desak ham bo‘ladi. Masalan, **олар бир-бириг күдүшді** – *ularning har biri bir-birini, hamrohini kutishdi*[2.100]. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da esa ushbu so‘zlarning ma’nosi kengayib, turli xil shakllari keltirilgan:

1. Mo‘ljallangan narsa yoki shaxsning paydo bo‘lishini, kelishini yoki uchrashini umid qilgan. Unga ko‘z tikkan holda ma’lum vaqt biror joyda turmoq, poylamoq. *Yusufbek hoji sipohlardan birining qo‘ltiqlashi bilan otiga minib, narida kutib turgan Hasanaliga qarab yurdi.*

2. Biror narsaning bo‘lishini e’tiborda tutib, nimadandir o‘zini tiyib, to‘xtatib turmoq. *Avaz zaldagi pichir-pichirlar tinishini kutib, bir oz jim qoldi-da, davom etdi: -Mirzayev Charosning tirnog‘iga ham arzimaydi.*

3. Keluvchini hurmatlab yo‘liga, istiqboliga chiqmoq. *G‘ulomjon hokimni kutgani bormadi.*



4. Birovning (mas, mexmonlarning) ko‘nglini olish uchun xizmatida bo‘lmoq, unga ziyofat qilmoq, xursand qilish uchun unga xizmat qilmoq, ko‘nglini olmoq. *Mezbon mehmonlarni yaxshi kutdi.*

5. Biror narsaning bo‘lishini umid qilmoq, shunday bo‘ladi deb o‘ylamoq, ilinjida bo‘lmoq. *Yaxshilik kutmoq. Nodondan aql kutma, beburddan — nomus.*

6. Hayot yo‘lida ro‘para bo‘lmoq, istiqbolida bo‘lmoq, qarshilamoq. *Darhaqiqat, bizning qarshimizga yo‘lbars chiqsa, biz qattiq qo‘rqamiz, chunki bizni o‘lim kutadir*[3.527]. Mahmud Koshg‘ariy “saqlanishdi” ma’nosini ifodalash uchun **сақлашди**– fe’lidan foydalangan: *будун қамуғ сақлашди* – *xalq jamoa hammasi bir-biridan saqlanishdi*[2.250]. Hozir ham nutqimizda “saqlamoq” fe’li faol qo‘llanadi, lekin o‘zlik nisbati hosil qilinishi uchun esa -il, -in qo‘shimchalari qo‘shilishi shart, aks holda bu fe’l aniq nisbatdagi fe’l hisoblanadi. Shu jihati bilan qadimgi turkiy tildagi **сақлашди**– fe’lidan farq qiladi. Quyida o‘rganilayotgan so‘zning aniq nisbatdagi shakli va uning ma’nolarini ko‘ramiz:

1. Ehtiyot qilmoq, ehtiyotkorlik bilan (biror joyda) asramoq, asrab-avaylab ishlatmoq. *Mahsini uch kun hayitda kiyib, saqlab qo‘ygandim, ana uni pullab, tagcharm olamiz.*

2. Tashqi ta’sirdan muhofaza qilmoq, aynish, buzilish-yorilish, nest-nobud bo‘lishdan, barbod bo‘lishdan asramoq, ehtiyot qilmoq. *Oilani saqlab qolish uchun, farzandlarim uchun harakat qildim, lekin iloji bo‘lmadi.*

3. Ehtiyot qilib, asli holati, xususiyati yoki ko‘rinishini o‘zgarishsiz olib qolmoq. *Kampir xolamiz bu sandiqlarda eng oldin behi saqlagan bo‘lsa ajab emas.*

4. Biror kimsaga atab yoki biror maqsad uchun (buyum yoki yemishlarni) asrab qo‘ymoq. *Bularni kimga saqlab qo‘yibsiz?*

5. Himoya, muhofaza, g‘amxo‘rlik qilmoq, qo‘riqlamoq. *Bugungi kunda insoniyat oldida nihoyatda muhim muammo turibdi, u ham bo‘lsa, yer yuzida tinchlikni saqlab qolish.*

6. Xalos qilmoq, qutqarmoq, omon qoldirmoq. *Halokatdan saqlamoq.*



7. Biror xatti-harakatdan qaytarmoq, to‘xtatib qolmoq, tiymoq. *Yomon so‘zdan saqla doim tishingni.*

8. Rioya qilmoq, muayyan holatga amal qilmoq, sukut saqlamoq. Tartib-odob, intizom saqlamoq. *Juvon o‘zini tartibga solib bo‘lguncha, joyidan qimir etmay, odob saqlab turardi.*

9. Belgi, iz, nishona olib qolmoq. *Bu osori atiqalar o‘zida o‘tmish nafasini saqlab qolgan.*

10. Doimiy ravishda qadrlamoq, ehtirom bilan eslamoq. *U [Alimardon] chinakam san‘atni qalbining to‘rida saqlashga qodir bo‘lgan chinakam shinavandalar ozmuncha emasligini bilmas, bilishni xohlamas edi.*

11. Asramoq, boqmoq, tutmoq. *Xizmatchi saqlamoq[4.524].*

Ushbu so‘z ot bo‘lib ham kela oladi: **Saqlandi**– asrab olingan, asrandi. Masalan, *saqlandi qiz*. Devonda kelgan ma’nosi ya’ni o‘zlik nisbatidagi shakli esa hozir ham deyarli bir xil ma’noga ega:

1. Saqlanmoq. *Materiyaning saqlanish qonuni.*

2. O‘z-o‘zini himoya qilish, muhofaza, himoya qilish. *Inson turli zararli kasalliklardan, yuqumli dardlardan saqlanishi kerak[4.525].*

Har bir so‘z dastlab muayyan bir ma’noni ifodalaydi. Keyinchalik tarixiy taraqqiyot, fan texnikaning takomillashuvi, semantik ko‘chish natijasida qo‘shimcha yangi semalar kasb etib, iste’mol doirasi kengayib boradi. Binobarin, ko‘p ma’nolilik til rivojida katta o‘rin tutib, uning lug‘at tarkibining boyishiga ulkan hissa qo‘shadi. XI asrda bir so‘z bir yoki ikki ma’noni anglatgan bo‘lsa, hozirgi o‘zbek adabiy tilida esa bu so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarda ham qo‘llanilayotganiga ham guvoh bo‘lamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Rasulov R. O‘zbek tilida holat fe’llari va ularning obligator valentliklari. 1989. 19-24-b.



Google
Scholar



2. Qoshg'ariy M. Devoni lug'otit turk. II tom. 1960. 92-100-250b.
3. O'zbek tilining izohli lug'ati. II tom. 2007. 527b.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati. III tom. 2007. 525b.